

Излаш



Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida

1-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasidagi ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklari) RO'YXATI *

2-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish institutining kasbiy tayyorgarlik fakultetidagi ta'lim mutaxassisliklari RO'YXATI

3-ILOVA
Ichki ishlar organlaridagi uzluksiz o'quv-karyera jarayoni TIZIMI

4-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar

5-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrda PQ-3413-son qarori bilan tasdiqlangan Ichki ishlar organlarida xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi nizomga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar *

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 15.04.2021 yildagi PQ-5076-son

Кучга кириш санаси

15.04.2021

Қўшимча ахборот

Улашиш

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

ICHKI ISHLAR ORGANLARI UCHUN PROFESSIONAL KADRLARNI TAYYORLASHNING SIFAT JIHATIDAN YANGI TIZIMINI JORIY ETISH BO'YICHA CHORA-TADBIRLAR TO'G'RSIDA

Ichki ishlar organlari uchun mutaxassislar tayyorlashning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, xodimlarning malakasiga qarab xizmat bo'yicha o'sishini ta'minlash, shuningdek, kuch va vositalarni samarali boshqarishda rahbar kadrlarning intellektual va professional salohiyatini yanada oshirish maqsadida:

1. 2021/2022 o'quv yilidan boshlab, Ichki ishlar vazirligining Akademiyasida (keyingi o'rinlarda — Akademiya) kadrlarni tayyorlash jarayoniga bakalavriat va magistraturani o'z ichiga oluvchi ikki bosqichli oliy ta'lim tizimi joriy etilsin.

Belgilansinki:

Akademiyadagi ta'lim tizimi kadrlarni maqsadli kasbiy tayyorlashga qaratiladi hamda birinchi kursdan boshlab mutaxassislik va yuridik fanlarni o'qitish, jangovar va jismoniy jihatdan tayyorlash chuqurlashtirilgan holda amalga oshiriladi;

Akademiyaning bakalavriat dasturi bo'yicha o'qitish kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida tashkil etiladi, shuningdek, ularga o'qishga qabul qilish ichki ishlar vazirining o'rinbosari raisligida tashkil etiladigan maxsus kasbiy tanlov va ochiqlik mezonlari asosida yakka tartibdagi suhbat orqali amalga oshiriladi;

Akademiyaning magistratura dasturi bo'yicha o'qitish ichki ishlar organlarining rahbar kadrlarini tayyorlashga qaratiladi hamda ikkinchi darajadagi "tashkiliy-taktik boshqaruv" va birinchi darajadagi "tashkiliy-strategik boshqaruv" yo'nalishlarida tashkil etiladi;

Oldingi tahrirga qarang.

magistratura dasturining har bir yo'nalishi bo'yicha o'qish muddati bir yilni tashkil etib, o'qishga kirgan xodimlar egallab turgan lavozimlaridan ozod etiladi va magistraturaning tinglovchilar safiga qabul qilinib, ularga oxirgi egallab turgan lavozimi uchun belgilangan pul ta'minoti saqlanadi va muvaffaqiyatli bitirganda oliy ta'limning ikkinchi bosqichini tamomlaganligini tasdiqlovchi diplom beriladi;

(1-bandining oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi 2022-yil 1-avgustdagi PQ-339-son qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.08.2022-y., 07/22/339/0703-son)

ichki ishlar vazirining o'rinbosarlari, sohaviy xizmatlar rahbarlariga bir oyda kamida bir marotaba Akademiya magistraturasida auditoriya o'quv mashg'ulotlarini bevosita o'tkazish vazifasi yuklanadi;

birinchi darajali magistraturaning ta'lim oluvchilari Ichki ishlar vazirligi departament boshliqlari, hududiy ichki ishlar organlari rahbarlarining bevosita murabbiyligida majburiy tartibda amaliyot (stajirovka) o'taydi, shuningdek, xorijiy huquq-tartibot idoralari ta'lim muassasalarining boshqaruv malakasini oshirishga qaratilgan kurslarida tahsil oladi;

Ichki ishlar vazirligi oliy ta'lim muassasalarining muqaddam faoliyat ko'rsatgan magistraturasi, oliy akademik kurslari va rahbar kadrlarni tayyorlash fakulteti (oliy kurslari)ni tamomlaganlik xizmatni o'tash masalalarida mazkur qaror bilan joriy etilayotgan ikkinchi darajadagi magistraturaga tenglashtiriladi.

Akademiya boshlig'i R.A. Xatamov zimmasiga:

ikki bosqichli oliy ta'lim tizimini sifatli joriy etish, o'quv jarayonini eng zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari asosida tashkil qilish, professor-o'qituvchilar tarkibining ilmiy-pedagogik salohiyatini, shu jumladan ularni xorijiy ta'lim muassasalarida o'qitish orqali oshirish;

magistraturaga qabul jarayonini o'rnatilgan mezonlarga javob beradigan va o'qish istagini bildirgan ichki ishlar organlari xodimlari orasidan, ularning to'g'ridan to'g'ri murojaatiga asosan nomzodlarni ochiq va xolisona tanlab olish orqali tashkil etish bo'yicha shaxsiy mas'uliyat yuklansin.

Ichki ishlar vazirligi (P.R. Bobojonov) ikki oy muddatda Akademiya magistraturasiga o'qishga qabul qilish tartibi va tanlov mezonlarini tasdiqlasin.

Oldingi tahrirga qarang.

(2-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi PQ-190-sonli qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.04.2022-y., 07/22/190/0268-son)

3. Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish institutiga yuridik shaxs maqomi berilsin va quyidagilar uning faoliyati asosiy yo'nalishlari etib belgilansin:

ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlarining barcha yo'nalishlari bo'yicha serjantlar tarkibi xodimlarini jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatini tashkil etish sohasida maxsus kasbiy tayyorlash;

ichki ishlar organlarining safdor va ofitserlar tarkibidagi lavozimlariga birinchi marta tayinlangan xodimlarni boshlang'ich kasbiy tayyorgarlik bo'yicha o'quv dasturlari asosida o'qitish;

ichki ishlar organlarining barcha toifadagi xodimlarini innovatsion axborot va pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda, shu jumladan turdosh yo'nalishdagi respublika oliy ta'lim muassasalari bazasida qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish.

Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang'ich tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazlari tugatilib, ularning shtat birliklari va moddiy-texnika bazasi Malaka oshirish institutiga o'tkazilsin.

Ichki ishlar vaziri P.R. Bobojonov:

Malaka oshirish institutini tugatilayotgan o'quv markazining Toshkent shahar Bektemir tumanidagi manzili bo'yicha joylashtirishni, uning bino va inshootlarini qurish va rekonstruksiya qilishni, maqsadli situatsion-immittatsion poligonlarni yaratishni tashkil etsin;

ichki ishlar organlari xodimlarining xizmatdan ajralmagan holda bevosita joylarda malakasini oshirishni ta'minlash maqsadida masofaviy va mobil sayyor kurslarni o'tkazish amaliyotini joriy etsin.

4. Ichki ishlar vazirligining Malaka oshirish instituti tarkibiga Akademiyaning kasbiy tayyorgarlik fakultetini o'tkazish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq:

Malaka oshirish institutining kasbiy tayyorgarlik fakultetida (keyingi o'rinlarda — kasbiy tayyorgarlik fakulteti) besh oylik dastur bo'yicha ichki ishlar organlarining serjant tarkibidagi lavozimlariga nomzodlarni maxsus kasbiy tayyorlash amalga oshiriladi;

kasbiy tayyorgarlik fakultetiga qabul ichki ishlar vaziri tomonidan belgilanadigan 200 nafargacha bo'lgan kvotalar doirasida tanlov asosida amalga oshiriladi hamda ta'lim oluvchilarga o'rnatilgan tartibda stipendiya to'lanadi va moddiy ta'minot belgilanadi;

kasbiy tayyorgarlik fakultetini tamomlagan xodimlarga "kichik serjant" maxsus unvoni hamda belgilangan namunadagi diplom beriladi;

Akademiya boshlig'i R.A. Xatamov kasbiy tayyorgarlik fakultetining moddiy-texnik va o'quv-metodik bazasi Malaka oshirish institutiga to'liq o'tkazib berilishini ta'minlasin.

5. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi va Malaka oshirish institutining kasbiy tayyorgarlik fakultetidagi ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklari) ro'yxatlari 1 va 2-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

6. Ichki ishlar organlarida xizmatni o'tash tartibiga quyidagilarni nazarda tutuvchi uzluksiz o'quv-karyera jarayoni tizimi 2021-yil 1-sentabrdan e'tiboran joriy etilsin:

ichki ishlar organlari rahbar tarkibining tegishli lavozimlariga tayinlanish uchun Akademiya magistraturasida o'qish shartligi;

xodimlarga maxsus unvonlar berilishining hamda safdor va serjantlar tarkibidagi xodimlar ofitserlik lavozimlariga tayinlanishining asosiy talablaridan biri sifatida ularning qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslaridan o'tishi zarurligi.

Belgilansinki:

ichki ishlar organlarining uzluksiz o'quv-karyera jarayoni tizimi 3-ilovaga muvofiq tartib bo'yicha amalga oshiriladi;

rahbar tarkibidagi tegishli lavozimlarga tayinlash uchun Akademiyaning ikkinchi darajali magistratura diplomiga ega bo'lishga oid talab 2022-yil 1-sentabrdan, birinchi darajali magistratura diplomiga ega bo'lishga oid talab esa 2024-yil 1-sentabrdan kuchga kiradi.

Ichki ishlar vaziri P.R. Bobojonov xizmat o'tash tizimiga joriy etilayotgan talablarga so'zsiz rioya etilishi, shuningdek, barcha darajadagi rahbarlar malakasining doimiy oshirib borilishini ta'minlash bo'yicha shaxsan mas'ul etib belgilansin.

7. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq:

Ichki ishlar vazirligi akademik litseylarining (keyingi o'rinlarda — idoraviy akademik litseylar) huquqshunoslik fani bo'yicha idoraviy fan olimpiadasi g'olibi bo'lgan bitiruvchilarining Akademiyaga o'qishga qabul qilinishi uchun faqat maxsus kasbiy tanlovdan muvaffaqiyatli o'tishlari yetarli hisoblanadi;

2021-yil 1-sentabrdan boshlab ichki ishlar organlarining serjant tarkibidagi lavozimlarida xizmatni o'tash uchun faqat oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar qabul qilinadi;

2021-yil 1-sentabrdan boshlab ichki ishlar organlarining safdor tarkibidagi lavozimlariga nomzodlar faqat idoraviy akademik litseylar, harbiy-akademik litseylar bitiruvchilari,

Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida

1-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasidagi ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklari) RO'YXATI *

2-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish institutining kasbiy tayyorgarlik fakultetidagi ta'lim mutaxassisliklari RO'YXATI

3-ILOVA
Ichki ishlar organlaridagi uzluksiz o'quv-karyera jarayoni TIZIMI

4-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar

5-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrda PQ-3413-son qarori bilan tasdiqlangan Ichki ishlar organlarida xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi nizomga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar *

profilaktika inspektorining yordamchilari, shuningdek, oliy ma'lumotga ega yoki sirtqi ta'lim shakli bo'yicha tahsil olayotgan shaxslar orasidan qabul qilinadi;

Akademiyaning sirtqi ta'lim shakliga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi apparati tomonidan har yili belgilanadigan qo'shimcha kvota bo'yicha boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar va Qurolli Kuchlarda kamida uch yillik harbiy xizmat (xizmat) stajiga ega bo'lgan harbiy xizmatchilar (xodimlar) to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilinishi mumkin.

8. Akademiya kursantlarining o'qishda, ma'naviy-ma'rifiy va sport-madaniy sohalarda yuqori natijalarga erishishga bo'lgan intilishlarini rag'batlantirish maqsadida Ichki ishlar vazirligining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan qonunchilikda belgilangan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining ikki baravari miqdorida Jaloliddin Manguberdi nomidagi idoraviy stipendiya ta'sis etilsin.

Ichki ishlar vaziri P.R. Bobojonov ikki oy muddatda:

idoraviy stipendiya to'g'risidagi nizomni tasdiqlasin va uning har o'quv yili yakuniga ko'ra 1-sentabr kuni berilishini ta'minlasin;

idoraviy akademik litseylar va Ichki ishlar vazirligi ixtisoslashtirilgan maktab-internatining o'qishda yuqori natijalarga erishgan o'quvchilari uchun ko'krak nishonini ta'sis etsin.

9. Quyidagi huquqlar berilsin:

a) ichki ishlar vaziriga:

Akademiya va Malaka oshirish instituti kasbiy tayyorgarlik fakultetining ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklari) ro'yxatlariga mavjud ehtiyojni inobatga olgan holda o'zgartirishlar kiritish;

idoraviy akademik litseylarning iqtidorli o'quvchilariga ular huzurida tuziladigan komissiyalarning tavsiyalariga ko'ra, budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan individual stipendiyalar berish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi bilan kelishilgan holda ichki ishlar organlari xodimlari (harbiy xizmatchilari) uchun Akademiyaning sirtqi ta'lim shakliga belgilangan qabul kvotasining 50 foizigacha bo'lgan miqdorda to'lov-kontrakt asosida qo'shimcha kvota kiritish;

Ichki ishlar vazirligining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan bir o'quv yili davriga Akademiyaning ixtisoslashtirilgan kafedralariga ularning shtatlar sonining 30 foizigacha bo'lgan miqdorda o'qituvchilarning qo'shimcha shtat birliklarini kiritish;

b) ichki ishlar vaziri o'rinbosarlariga — Malaka oshirish institutida ichki ishlar organlarining tegishli rahbarlari va xodimlari uchun qayta tayyorlash va malaka oshirish bo'yicha navbatdan tashqari qo'shimcha o'quv yig'inlarini tashkil etish bo'yicha takliflar kiritish;

Oldingi tahrirga qarang.

v) Akademiya boshlig'iga:

to'lov-kontrakt asosida o'qitish mablag'lari hisobidan o'quv jarayoniga shartnoma asosida, birinchi navbatda yetakchi xorijiy ta'lim muassasalaridan yuqori ilmiy-pedagogik mahoratga ega bo'lgan malakali mutaxassislarni jalb etish va mehnat bozorida amaldagi konyunkturani inobatga olgan holda ularning mehnatiga haq to'lash miqdorini belgilash;

haydovchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish faoliyatini amalga oshiruvchi ta'lim muassasalarining o'qituvchi, haydovchi-yo'riqchi va murabbiylarini shartnoma asosida qayta tayyorlash va malakasini oshirishdan tushgan mablag'lar hisobidan Akademiyaning moddiy-texnika va o'quv bazasini rivojlantirish, shuningdek, shartnoma asosida o'quv jarayoniga pedagog kadrlar va mutaxassislarni jalb etish.

(9-bandning "v" kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi PQ-190-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.04.2022-y., 07/22/190/0268-son)

10. Ichki ishlar vazirligi (P.R. Bobojonov) Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (A.X. Toshkulov) hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda:

bir oy muddatda idoraviy akademik litseylarda yuridik fanlar va jismoniy tayyorgarlik bo'yicha chuqurlashtirilgan ta'limni nazarda tutgan holda ularning o'quv jarayonini takomillashtirish to'g'risida Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin;

bir oy muddatda Malaka oshirish institutining faoliyatini yuridik shaxs sifatida o'rnatilgan tartibda tashkil etish, shuningdek, uning shtatlar jadvali va moddiy-texnik ta'minoti me'yorlarini mazkur qarorni inobatga olgan holda tasdiqlash choralari ko'rsin;

ikki oy muddatda O'zbekiston Respublikasi oliy ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari to'g'risidagi nizomni, bitiruvchilarning oliy ma'lumot to'g'risidagi diplomlarining davlat namunalari tasdiqlashni nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin;

2021/2022 o'quv yilidan boshlab Akademiya va Malaka oshirish institutining kasbiy tayyorgarlik fakultetida mazkur qaror talablariga muvofiq to'laqonli ta'lim jarayonini ta'minlash bo'yicha kompleks tashkiliy choralarni ko'rsin;

Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida

1-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasidagi ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklari) RO'YXATI*

2-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish institutining kasbiy tayyorgarlik fakultetidagi ta'lim mutaxassisliklari RO'YXATI

3-ILOVA
Ichki ishlar organlaridagi uzluksiz o'quv-karyera jarayoni TIZIMI

4-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar

5-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrda PQ-3413-son qarori bilan tasdiqlangan Ichki ishlar organlarida xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi nizomga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar*

uch oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

11. Belgilansinki:

Akademiyada amaldagi o'quv dasturlari bo'yicha o'qitish ularning muqaddam o'rnatilgan tartibda yakunlanguniga qadar saqlanib qoladi;

Akademiyaning xizmatchilar hisoblangan boshqaruv va professor-o'qituvchilar tarkibidagi xodimlariga avvalgi ish joyi bo'yicha berilgan martaba darajalari uchun belgilangan ustama haqlari (mavjud bo'lsa) saqlanib qoladi;

Oldingi tahrirga qarang.

Akademiyada to'lov-kontrakt asosida o'qitish mablag'lari uning budjetdan tashqari hisob raqamiga tushadi va ushbu mablag'larning 50 foizdan kam bo'lmagan qismi ta'lim jarayoniga shartnoma asosida malakali mutaxassislarni jalb etishga, shuningdek, Akademiya xodim va xizmatchilarini moddiy rag'batlantirish hamda ularni ijtimoiy himoya qilishga yo'naltiriladi;

(11-bandning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrda PF-27-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.12.2021-y., 06/21/27/1116-son)

Akademiyada to'lov-kontrakt asosida o'qitish stavkalari har yili ichki ishlar vaziri tomonidan belgilanadi;

mazkur qarorda nazarda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar Ichki ishlar vazirligining asoslantirilgan hisob-kitoblariga ko'ra har yili ajratiladigan budjet mablag'lari, Ichki ishlar vazirligining budjetdan tashqari mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga 4 va 5-ilovalarga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

13. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil etishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib ichki ishlar vaziri P.R. Bobojonov belgilansin.

Mazkur qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Sh. Nizomiddinov zimmasiga yuklansin.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi yuzasidan 2021-yil 1-sentabr va 2022-yil 1-yanvargacha O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot berilsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2021-yil 15-aprel,
PQ-5076-son

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2021-yil 15-
apreldagi PQ-5076-son qaroriga
1-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasidagi ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklari)

RO'YXATI*

Oldingi tahrirga qarang.

T/r	Yo'nalish (mutaxassislik) nomi	Beriladigan malaka	Ta'lim shakli	Ta'lim muddati
I. Bakalavriat				
1.	Tergov faoliyati	yurist	kunduzgi	3 yil
2.	Tezkor-qidiruv faoliyati	yurist	kunduzgi	3 yil
3.	Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati	yurist	kunduzgi	3 yil
4.	Ekspert-kriminalistika faoliyati	yurist	kunduzgi	3 yil
5.	Jazoni ijro etish faoliyati	yurist	kunduzgi	3 yil
5 ¹ .	Probatsiya faoliyati	yurist-psixolog	kunduzgi	3 yil
6.	Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta'minlash	yurist-psixolog	kunduzgi	3 yil
7.	Tashkiliy-shtab faoliyati	yurist	kunduzgi	3 yil
8.	Huquqbuzarliklarni oldini olish va fosh etish faoliyati	yurist	sirtqi	4 yil/3 yil**
II. Magistratura				

9.	Tashkiliy-taktik boshqaruv	II darajali magistr-yurist	kunduzgi	1 yil
10.	Tashkiliy-strategik boshqaruv	I darajali magistr-yurist	kunduzgi	1 yil

* 2021/2022 o'quv yilidan boshlab kuchga kiradi.

** oliy ma'lumotga ega bo'lmaganlar uchun — 4 yil, oliy ma'lumotlilar uchun — 3 yil.

(1-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-apreldagi PQ-207-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.04.2022-y., 07/22/207/0310-son)

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2021-yil 15-
apreldagi PQ-5076-son qaroriga
2-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish institutining kasbiy tayyorgarlik fakultetidagi ta'lim mutaxassisliklari

RO'YXATI

Oldingi tahrirga qarang.

T/r	Mutaxassislik nomi	Beriladigan malaka	Ta'lim shakli	Ta'lim muddati
1.	Yo'l-patrul faoliyati	mutaxassis	kunduzgi	5 oy
2.	Pasport tizimini a'minlash	mutaxassis	kunduzgi	5 oy
3.	Jamoat tartibini saqlash faoliyati	mutaxassis	kunduzgi	5 oy
4.	Jazoni ijro etish faoliyati	mutaxassis	kunduzgi	5 oy
5.	Tarbiyaviy faoliyat	mutaxassis	kunduzgi	5 oy
6.	Maxsus operatsiyalarni amalga oshirish faoliyati	mutaxassis	kunduzgi	5 oy
7.	Ma'muriy-xo'jalik ta'minoti	mutaxassis	kunduzgi	5 oy

(2-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-apreldagi PQ-207-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.04.2022-y., 07/22/207/0310-son)

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2021-yil 15-
apreldagi PQ-5076-son qaroriga
3-ILOVA

Ichki ishlar organlaridagi uzluksiz o'quv-karyera jarayoni

TIZIMI

O'qitish			Karyera		
Ta'lim muassasasi	O'qitish shakli va muddati	Beriladigan malaka	Tayyorlash darajasi	O'qitish maqsadi	
				Maxsus unvon berish	Lavozimga tayinlash
SAFDORLAR TARKIBI					
IIV Malaka oshirish instituti	boshlang'ich tayyorgarlikning kunduzgi va sayyor kurslari (3 oygacha)	-	ichki ishlar organlari	-	xodim
	ofitserlik lavozimlariga tayinlash uchun kunduzgi qayta tayyorlash kurslari * (1 oygacha)	-	mahalla, tuman (shahar)	leytenant	xodim, guruh komandiri
SERJANTLAR TARKIBI					
IIV Malaka oshirish instituti	maxsus kasbiy tayyorgarlik kurslaridagi kunduzgi ta'lim (5 oy)	mutaxassis (maxsus kasbiy tayyorgarlik)	mahalla, tuman (shahar)	kichik serjant	xodim, guruh komandiri

Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida

1-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasidagi ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklari) RO'YXATI *

2-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish institutining kasbiy tayyorgarlik fakultetidagi ta'lim mutaxassisliklari RO'YXATI

3-ILOVA
Ichki ishlar organlaridagi uzluksiz o'quv-karyera jarayoni TIZIMI

4-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar

5-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrda PQ-3413-son qarori bilan tasdiqlangan Ichki ishlar organlarida xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi nizomga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar *

IIV Malaka oshirish instituti/Maxsus tayyorgarlik o'quv markazi	ofitserlik lavozimlariga tayinlash uchun kunduzgi qayta tayyorlash kurslari* (1 oygacha)	-	mahalla, tuman (shahar)	leytenant	xodim, guruh komandiri
	kunduzgi va sayyor malaka oshirish kurslari (3 haftagacha)	-		katta serjant	-
OFITSERLAR TARKIBI					
IIV Malaka oshirish instituti	boshlang'ich tayyorgarlikning kunduzgi va sayyor kurslari** (3 oygacha)	-	ichki ishlar organlari	leytenant	xodim
	kunduzgi va sayyor qayta tayyorlash kurslari *** (3 haftagacha)	mutaxassislikni o'zlashtirganlik haqidagi sertifikat	tegishli mutaxassislik	-	boshqa mutaxassislik bo'yicha xodim
IIV Akademiyasi	kunduzgi ta'lim (3 yil)	bakalavr	mahalla, tuman (shahar)	leytenant	xodim
	sirtqi ta'lim (3-4 yil)	(yurist)			
IIV Malaka oshirish instituti/Maxsus tayyorgarlik o'quv markazi	masofaviy va sayyor malaka oshirish kurslari (10 kungacha)	-		kapitan	-
	kunduzgi va sayyor malaka oshirish kurslari (3 haftagacha)	-		mayor	-
IIV Malaka oshirish instituti	kunduzgi va sayyor malaka oshirish kurslari (3 haftagacha)	-		-	Barcha darajadagi bo'lim boshliqlari, tuman (shahar, tarmoq) IIO boshlig'ining o'rinbosari
IIV Akademiyasi	II darajali kunduzgi magistratura (1 yil)	II darajali magistr ("tashkiliy-taktik boshqaruv")	tuman (shahar, tarmoq), viloyat	podpolkovnik, polkovnik	tuman (shahar, tarmoq) IIO boshlig'i, barcha darajadagi boshqarma boshliqlari****
IIV Malaka oshirish instituti/Maxsus tayyorgarlik o'quv markazi	kunduzgi va sayyor malaka oshirish kurslari (1 oygacha)	-		podpolkovnik	-
IIV Akademiyasi	Ixtisoslashtirilgan kafedrada 1 yildan ortiq pedagogik faoliyat	-		podpolkovnik	-

Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida

1-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasidagi ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklari) RO'YXATI *

2-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish institutining kasbiy tayyorgarlik fakultetidagi ta'lim mutaxassisliklari RO'YXATI

3-ILOVA
Ichki ishlar organlaridagi uzluksiz o'quv-karyera jarayoni TIZIMI

4-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar

5-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrda PQ-3413-son qarori bilan tasdiqlangan Ichki ishlar organlarida xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi nizomga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar *

IIV Akademiyasi	I darajali kunduzgi magistratura (1 yil)	I darajali magistr ("tashkiliy-strategik boshqaruv")	viloyat, respublika	polkovnik	Qoraqalpog'iston Respublikasi ichki ishlar vaziri, viloyat darajasidagi bosh boshqarma (boshqarma) boshlig'i va uning o'rinbosarlari, IIV bosh boshqarmasi (departament, xizmat) boshlig'i*****
IIV Akademiyasi	doktorantura	falsafa doktori (PhD), fan nomzodi,	tegishli ilmiy soha	polkovnik	o'quv-uslubiy boshqarmasi, kafedra, fakultet boshliqlari, professor, dotsent
Boshqa oliy ta'lim muassasalari		fan doktori (DSc)			

* fuqaroviy oliy ma'lumotga ega bo'lganda.

** fuqaroviy oliy ma'lumotga ega bo'lganlarni ofitserlar tarkibidagi lavozimlarga tayinlashda.

*** O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida o'qitilishi belgilangan boshqa mutaxassislik lavozimlariga o'tishda.

**** O'zbekiston Respublikasi IIV Moliyaviy va moddiy-texnik ta'minot departamentining boshqarmalari (bo'limlari), axborot texnologiyalarni joriy etish bo'linmalari, Tezkor ta'minot boshqarmasi, Xalqaro hamkorlik boshqarmasi, Tibbiyot boshqarmasi, Jamoatchilik va OAV bilan hamkorlik boshqarmasi, Harbiy-safarbarlik boshqarmasi, Nazorat-taftish inspeksiyasi, Interpolning O'zbekiston Respublikasidagi Milliy markaziy byurosi bundan mustasno.

***** Moliyaviy va moddiy-texnik ta'minot departamentidan tashqari.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2021-yil 15-
apreldagi PQ-5076-son qaroriga
4-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi "Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3216-son qarorida:

a) 2-bandda:

ikkinchi xatboshidagi "qayta tayyorlash va malakasini oshirish" so'zlari chiqarib tashlansin;

uchinchi, to'rtinchi va oltinchi xatboshilar 2021-yil 1-iyuldan boshlab o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin;

yettinchi xatboshidagi "600" va "200" raqamlari tegishli "700" va "300" raqamlari bilan almashtirilsin;

sakkizinchi xatboshi "professor-o'qituvchilari tarkibi" so'zlaridan keyin "kafedralar (fakultetlar va sikllar) rahbarlaridan tashqari," so'zlari bilan to'ldirilsin;

b) 3-band va 5-bandning "a" va "v" kichik bandlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin;

v) 4-band 2021-yil 1-sentabrdan boshlab o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin;

g) 6-bandda:

beshinch xatboshi "Akademiya" so'zidan keyin "va Malaka oshirish instituti" so'zlari bilan to'ldirilsin;

oltinchi xatboshidagi "Akademiya" so'zi "Malaka oshirish instituti" so'zlari bilan almashtirilsin;

o'n birinchi xatboshidagi "Milliy gvardiya Harbiy-texnik institutiga va Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasiga" so'zlari "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va Favqulodda vaziyatlar vazirligi oliy ta'lim muassasalariga" so'zlari bilan almashtirilsin;

o'n ikkinchi xatboshidagi "Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi, Milliy gvardiya Harbiy-texnik instituti yoki Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasiga o'qishga kira olmagan" va "ushbu" so'zlari chiqarib tashlansin;

d) 7-band o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin;

e) 8-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"8. Belgilansinki, Ichki ishlar vazirligi oliy ta'lim muassasalarining kunduzgi ta'lim shakliga o'qishga kirgan shaxslar kursantlar safiga, sirtqi ta'lim shakliga, magistraturaga, kasbiy tayyorgarlik fakultetiga o'qishga kirganlar esa tinglovchilar safiga qabul qilinadi";

j) 17-band o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin;

z) 1-ilova 2021-yil 1-sentabrdan boshlab o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi "Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3413-son qarorida:

Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida

1-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasidagi ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklari) RO'YXATI *

2-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish institutining kasbiy tayyorgarlik fakultetidagi ta'lim mutaxassisliklari RO'YXATI

3-ILOVA
Ichki ishlar organlaridagi uzluksiz o'quv-karyera jarayoni TIZIMI

4-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar

5-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PQ-3413-son qarori bilan tasdiqlangan Ichki ishlar organlarida xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi nizomga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar *

a) 5-bandning **uchinchi xatboshisi** o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin;

b) 1-ilovada:

6-bandda:

ikkinchi xatboshidagi "o'n sakkizdan" so'zlari "o'n yettidan" so'zlari bilan almashtirilsin;

to'rtinchi xatboshidagi "Akademiyasining" so'zi "Malaka oshirish institutining" so'zlari bilan almashtirilsin;

14-bandning **ikkinchi xatboshisida** "Akademiyasining" so'zi "Malaka oshirish institutining" so'zlari bilan almashtirilsin;

15-bandda "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasiga, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasiga yoki O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik institutiga kira olmagan" so'zlari chiqarib tashlansin;

19-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"19. Ichki ishlar organlaridagi lavozimlar quyidagicha jamlanadi:

ofitserlar tarkibi — oliy ma'lumotga ega, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan;

serjantlar tarkibi — o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar yoki oliy ma'lumotga ega, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish institutining kasbiy tayyorgarlik fakultetini yoki Mudofaa vazirligining Kichik mutaxassislarni tayyorlash markazini tamomlagan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan;

safdorlar tarkibi — o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar yoki oliy ma'lumotga ega O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining zaxirasidagi ofitserlarni ichki ishlar organlarining safdor va serjantlar tarkibi lavozimlariga tayinlashga yo'l qo'yilmaydi";

31-bandda "Akademiyasi" so'zi "Malaka oshirish instituti" so'zlari bilan almashtirilsin;

40-bandning **to'qqizinchi, o'ninchi va o'n birinchi xatboshilari** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Ichki ishlar organlari profilaktika, tergov va tezkor bo'linmalari xodimlariga rag'batlantirish chorasida egallab turgan lavozimi bilan ko'zda tutilgan maxsus unvondan qat'i nazar navbatdagi maxsus unvon berilishi mumkin:

"podpolkovnik" maxsus unvoni — tegishliligi bo'yicha ichki ishlar organlari profilaktika, tergov va tezkor bo'linmalarida o'n besh kalendar yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan profilaktika inspektori, tergovchisi (surishtiruvchisi), tezkor vakili yoki profilaktika katta inspektori, katta tergovchisi (katta surishtiruvchisi), katta tezkor vakili lavozimidagi xodimlarga "mayor" maxsus unvonida xizmat o'tash muddati tugaganidan so'ng;

"polkovnik" maxsus unvoni — tegishliligi bo'yicha ichki ishlar organlari profilaktika, tergov va tezkor bo'linmalarida yigirma kalendar yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan profilaktika katta inspektori, katta tergovchisi (katta surishtiruvchisi), katta tezkor vakili yoki o'ta muhim ishlar bo'yicha tergovchisi, tezkor vakili lavozimidagi xodimlarga "podpolkovnik" maxsus unvonida xizmat o'tash muddati tugaganidan so'ng";

47-bandning **birinchi va ikkinchi xatboshilaridagi** "qabul qilingan yoki o'tkazilgan" so'zlari "o'tkazilgan (yuborilgan)" so'zlari bilan almashtirilsin;

50-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"50. Ushbu Nizomning 33-bandi uchinchi xatboshisi, 47 yoki 48-bandlariga muvofiq maxsus unvonlar berilgan xodimlarga (shu jumladan mazkur Nizom kuchga kirgunga qadar xizmatga o'tkazilgan (yuborilgan) yoki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror, farmoyishi yoki uning roziligi bilan yuborilgan) xizmat yillari uchun foizli ustama haq belgilashda ularning ilgari ish joyidagi (foizli ustama to'lash uchun belgilangan) xizmat yoki mehnat stajlari inobatga olinadi hamda ushbu davr xodim ichki ishlar organlaridan bo'shatilgan taqdirda unga pensiya tayinlashda umumiy xizmat stajiga qo'shib hisoblanadi";

58-bandning **"e" kichik bandi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"e) O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari tarkibi lavozimlariga, kafedralar (fakultetlar va sikllar) rahbarlaridan tashqari, tegishli sohada kamida o'n yillik ilmiy, pedagogik yoki amaliy ish tajribasiga ega bo'lgan shaxslar shahodatlangan lavozimlar hisobidan tayinlanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining bakalavrlari sirasidan bo'lgan xodimlari, istisno tariqasida, ichki ishlar organlari ta'lim muassasalarining o'qituvchilar tarkibi lavozimlariga magistr darajasiga ega bo'lmagan holda tayinlanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining ixtisoslashtirilgan kafedralari professor-o'qituvchilar tarkibidagi lavozimlariga tegishli sohada kamida 3 yillik amaliy xizmat stajiga yoxud tegishli mutaxassislik bo'yicha ilmiy darajaga ega shaxslar tayinlanadi.

Tegishli sohada kamida 3 yillik amaliy xizmat stajiga ega ichki ishlar organlari xodimlariga O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi bazaviy doktoranturasi kunduzgi shakliga pedagogik stajga ega bo'lmagan holda kirish huquqi beriladi.";

Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida

1-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasidagi ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklari) RO'YXATI *

2-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish institutining kasbiy tayyorgarlik fakultetidagi ta'lim mutaxassisliklari RO'YXATI

3-ILOVA
Ichki ishlar organlaridagi uzluksiz o'quv-karyera jarayoni TIZIMI

4-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar

5-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrda PQ-3413-son qarori bilan tasdiqlangan Ichki ishlar organlarida xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi nizomga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar *

63-bandda “rahbar kadrlarni tayyorlash fakulteti (oliy kurslar)ga” so'zlari “va magistraturaga” so'zlari bilan almashtirilsin;

71-bandda “Ichki ishlar vazirligi ta'lim muassasalarida” so'zlari “Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti va Maxsus tayyorgarlik o'quv markazida” so'zlari bilan almashtirilsin;

75-banddan “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatligiga, Senati a'ziligiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyat, tuman va shahar davlat hokimiyati vakillik organi deputatligiga saylangan (tayinlangan)” so'zlari chiqarib tashlansin.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-avgustdagi “Ichki ishlar organlari boshqaruv, nazorat va shaxsiy tarkib bilan ishlashning samarali tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3919-son qarorining 11-bandi **uchinchi** va **oltinchi xatboshilari** o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2021-yil 15-
apreldagi PQ-5076-son qaroriga
5-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PQ-3413-son qarori bilan tasdiqlangan Ichki ishlar organlarida xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi nizomga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar*

1. 6-bandning **to'rtinchi xatboshisida** “tegishli o'rta, o'rta-maxsus, kasb-hunar yoki” so'zlari chiqarib tashlansin.

2. **19-band** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“19. Ichki ishlar organlaridagi lavozimlar quyidagicha jamlanadi:

ofitserlar tarkibi — oliy ma'lumotga ega, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan;

serjantlar tarkibi — oliy ma'lumotga ega, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish institutining kasbiy tayyorgarlik fakultetini yoki Mudofaa vazirligining Kichik mutaxassislarni tayyorlash markazini tamomlagan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan;

safdorlar tarkibi — O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademik litseylari, harbiy-akademik litseylar bitiruvchilari, profilaktika inspektorlarining yordamchilari, shuningdek, oliy ma'lumotga ega yoki sirtqi ta'lim shaklida tahsil olayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan.

Safdorlar tarkibining tor mutaxassislik sirasiga kiruvchi lavozimlarni o'rta, o'rta maxsus yoki kasb-hunar ma'lumotga ega, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan jamlashga yo'l qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining zaxirasidagi ofitserlarni ichki ishlar organlarining safdor va serjantlar tarkibi lavozimlariga tayinlashga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri rag'batlantirish tariqasida, ichki ishlar organlarida kamida ikki yil xizmat stajiga ega, oliy ma'lumotli va yuklatilgan vazifalarni bajarishda samarali natijalarga erishgan, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish institutining kasbiy tayyorgarlik fakultetini yoki Mudofaa vazirligining Kichik mutaxassislarni tayyorlash markazini tamomlamagan safdorlar tarkibidagi xodimlarni ham, istisno tariqasida, serjantlar tarkibidagi lavozimlarga tayinlashga va “kichik serjant” maxsus unvonini berishga ruxsat berishi mumkin.

Ichki ishlar organlarining maxsus bo'linmalarining, shuningdek, tibbiy muassasalarining serjantlar tarkibi lavozimlari o'rta va o'rta maxsus ma'lumotli shaxslar bilan jamlanishi mumkin”.

3. **27-band** “xizmat majburiyatlariga munosabati” so'zlaridan keyin “malaka oshirish kurslarini o'taganligi” so'zlari bilan to'ldirilsin.

4. **33-bandda**:

yettinchi xatboshi “lavozimlariga tayinlanganlarga” so'zlaridan keyin “O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish institutining qayta tayyorlash maxsus kurslarini o'taganlaridan so'ng” so'zlari bilan to'ldirilsin;

sakkizinchi xatboshisi chiqarib tashlansin.

5. **36-band** quyidagi mazmundagi ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi xatboshilar bilan to'ldirilsin:

“Navbatdagi “katta serjant”, “kapitan”, “mayor” va “podpolkovnik” maxsus unvonlari O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti yoki Maxsus tayyorgarlik o'quv markazining maxsus malaka oshirish kurslarini muvaffaqiyatli o'tagan xodimlarga beriladi. Rag'batlantirish chorasi tariqasida muddatidan oldin maxsus unvonlar berilishi bundan mustasno.

Navbatdagi “polkovnik” maxsus unvoni yuklatilgan vazifalarni bajarishda samarali natijalarga erishgan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining magistraturasini yoki Qurolli Kuchlar Akademiyasining ikki yillik ta'lim dasturini, boshqa oliy ta'lim muassasalarining moliya-iqtisod, texnik yoki tibbiy sohalarida yo'nalishlari bo'yicha magistraturasini muvaffaqiyatli tamomlagan yoxud ilmiy darajaga ega xodimlarga beriladi.

Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida

1-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasidagi ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklari) RO'YXATI*

2-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish institutining kasbiy tayyorgarlik fakultetidagi ta'lim mutaxassisliklari RO'YXATI

3-ILOVA
Ichki ishlar organlaridagi uzluksiz o'quv-karyera jarayoni TIZIMI

4-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar

5-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PQ-3413-son qarori bilan tasdiqlangan Ichki ishlar organlarida xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi nizomga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar*

Mazkur bandni inobatga olmagan holda maxsus unvonlarni berishga faqat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining roziligi bilan yo'l qo'yiladi".

6. 40-bandning **to'qqizinchi xatboshisi** "rag'batlantirish chorasi tariqasida" so'zlaridan keyin "mazkur Nizomning 36-bandining ikkinchi va uchinchi xatboshilarida nazarda tutilgan talablarga javob berganda" so'zlari bilan to'ldirilsin.

7. **52-bandda** "oliy ta'lim muassasalari rahbar kadrlarni tayyorlash fakulteti (oliy kurslari)" so'zlari "Akademiyasi magistraturasi" so'zlari bilan almashtirilsin.

8. 79-bandning **uchinchi xatboshisi** "egallagan lavozimidan qat'i nazar" so'zlaridan keyin "mazkur Nizomning 36-bandining uchinchi xatboshisida nazarda tutilgan talablarga javob berganda" so'zlari bilan to'ldirilsin.

9. 161-bandning **ikkinchi xatboshisidagi** "rahbar kadrlar tayyorlash fakulteti (oliy kurslari)da" so'zlari "magistraturada" so'zi bilan almashtirilsin.

* 2021-yil 1-sentabrdan boshlab kuchga kiradi

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.04.2021-y., 07/21/5076/0347-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.12.2021-y., 06/21/27/1116-son, 04.04.2022-y., 07/22/190/0268-son, 15.04.2022-y., 07/22/207/0310-son; 02.08.2022-y., 07/22/339/0703-son; 21.01.2023-y., 07/23/10/0043-son)

Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida

1-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasidagi ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklari) RO'YXATI *

2-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish institutining kasbiy tayyorgarlik fakultetidagi ta'lim mutaxassisliklari RO'YXATI

3-ILOVA
Ichki ishlar organlaridagi uzluksiz o'quv-karyera jarayoni TIZIMI

4-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar

5-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PQ-3413-son qarori bilan tasdiqlangan Ichki ishlar organlarida xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi nizomga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar *